ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№2(2)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari 22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna

O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish:
Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida 26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna

Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil 29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish 33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini
pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish 37
Nusharov Bobir Bolbekovich

Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений
младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя 41
Олимова Азиза Кахрамоновна

"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini
o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari 47
Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi

Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning
pedagogik-metodik asoslari 50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich

Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv
nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari 54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi 59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli 64
Botirova Lobar Kamolovna

O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish 69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirishda
integrativ usullardan foydalanish 73
Ergasheva Nigora Erkinovna

Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects 76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari 81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li

Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni 85
Baxramova O'ramol Uralovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy
kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati 88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna

Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari 92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich

Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli 96
Ergasheva Mehriyona

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini
shakllantirishning nazariy asoslari 100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi

The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies 104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi

Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash:
tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili 109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna

Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi 112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations 116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari 123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi..... 126
Shermatova Yakut Sabirovna

O'smirlar o'rtasida kiberbulling 129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish 132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna

Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli..... 135
Turdiyeva Zilola Jalilovna

Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni 138
Xalikova Umida Mirovna

Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni 143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi

Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash..... 148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi

О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования..... 153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна

QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARGA PEDAGOGIK YORDAM KO'RSATISH TIZIMI

Shermatova Yakut Sabirovna
Qo'qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qandli diabet bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda kompleks pedagogik ta'lim va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining roli o'rganiladi. Tadqiqot bemorlarning o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish va kasallikka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalashga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tizimli pedagogik yondashuv glikemiya nazoratini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qandli diabet, pedagogik reabilitatsiya, psixologik korreksiya, o'z-o'zini nazorat qilish, andragogika.

Abstract: This article explores the role of a comprehensive system of pedagogical education and psychological support in improving the quality of life of patients with diabetes mellitus. The study aims to develop patients' self-management competencies and foster a conscious attitude toward the disease. The results indicate that a systematic pedagogical approach plays a significant role in improving glycemic control.

Key words: diabetes mellitus, pedagogical rehabilitation, psychological correction, self-management, andragogy.

Аннотация: В данной статье исследуется роль комплексной системы педагогического обучения и психологической поддержки в улучшении качества жизни больных сахарным диабетом. Исследование направлено на формирование у пациентов компетенций самоконтроля и воспитание осознанного отношения к заболеванию. Результаты показывают, что системный педагогический подход имеет важное значение для улучшения контроля гликемии.

Ключевые слова: сахарный диабет, педагогическая реабилитация, психологическая коррекция, самоконтроль, андрагогика.

KIRISH

Qandli diabet – organizmda qand (glyukoza) almashinuvi buzilishi bilan bog'liq surunkali kasallik bo'lib, unda qonda shakar miqdori me'yordan yuqori bo'ladi. Bu holat asosan insulin gormoni yetishmasligi yoki uning ta'sirining kamayishi natijasida yuzaga keladi. Insulin oshqozon osti bezida ishlab chiqariladi va u qondagi shakarni hujayralarga yetkazib, energiya hosil bo'lishiga yordam beradi. Qandli diabet zamonaviy tibbiyot va pedagogikaning kesishgan nuqtasidagi dolzarb muammodir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, davolashning samarasizligi 70 % holatlarda bemorlarning tibbiy-pedagogik savodxonligining pastligi hamda psixologik tushkunligi bilan bog'liq.

Hozirgi kunda bolalar o'rtasida surunkali kasalliklar, xususan, qandli diabetning uchrashi ortib bormoqda. Qandli diabet nafaqat tibbiy, balki pedagogik muammo ham hisoblanadi, chunki ushbu kasallik bilan yashayotgan bolalar o'quv jarayonida alohida e'tibor va moslashuvchan sharoitlarga muhtojdir.

Diabet bolalarda diqqatning pasayishi, tez charchash, kayfiyat o'zgarishi hamda ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Pedagogik ish tizimi – bu bolaning ta'lim va tarbiya jarayonini sog'lig'ini asragan holda samarali rivojlanishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qandli diabet bilan og'rigan bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli nazariy va amaliy yondashuvlar mavjud. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida bir qancha asosiy yo'nalishlar ajralib turadi: A.V. Averbux bolalarning surunkali kasalliklari bilan bog'liq pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi. U pedagogik yordamni tashkil etishda individual yondashuv,

o‘quv yuklamasini moslashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlashni asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi. Bu tadqiqot mazkur maqolaning nazariy asosini yaratadi [1].

N.P. Yefimova qandli diabet bilan og‘rigan bolalarning o‘quv jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarini yoritadi. Muallif bolalarning diqqat, charchoq va kayfiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni, shuningdek, pedagogik yondashuvlar yordamida ushbu qiyinchiliklarni kamaytirish usullarini ko‘rsatadi [2].

Ya.S. Shermatova inklyuziv ta’lim doirasida maxsus ehtiyojli bolalarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini ishlab chiqadi. Muallifning ishida individual rejalashtirish, sog‘lomlashtiruvchi faoliyat va ota-ona hamkorligi asosiy elementlar sifatida belgilangan. American Diabetes Association tomonidan ishlab chiqilgan qandli diabetni davolash va nazorat qilish standartlari pedagogik tizimni tashkil etishda tibbiy asos sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu manba bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq xavfsizlik choralarini belgilash va diabetni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [4].

Shuningdek, WHO hisobotlari qandli diabetning global tarqalishi, bolalardagi xavf omillari hamda sog‘lomlashtiruvchi faoliyatga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot pedagogika, maxsus pedagogika, psixologiya va tibbiyot fanlarining integrativ yondashuviga asoslandi. Metodologik asos sifatida inklyuziv ta’lim tamoyillari, sog‘lomlashtiruvchi pedagogika hamda bemorlarning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, normativ hujjatlarni o‘rganish hamda ilg‘or tajribalarni umumlashtirish amalga oshirildi.

Empirik bosqichda kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov ishlari va natijalarni qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Metodologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘ldi: individuallashtirish (bemorning yoshi va sog‘liq holatini hisobga olish), tizimlilik (pedagogik va psixologik yordamning uzluksizligi), amaliy yo‘naltirilganlik (real ta’lim muhitida qo‘llash imkoniyati) hamda hamkorlik (o‘qituvchi–ota-ona–tibbiyot xodimi o‘zaro integratsiyasi). Mazkur yondashuv qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish masalasida zamonaviy yondashuvlar nafaqat tibbiy nazorat, balki uzluksiz ta’limiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, World Health Organization ma’lumotlariga ko‘ra, diabet global miqyosda nogironlik va erta o‘lim xavfini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uni samarali boshqarishda bemorlarning sog‘lom turmush tarzi va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois pedagogik tizim faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki motivatsion, ijtimoiy va emotsional qo‘llab-quvvatlashni ham qamrab olishi lozim. Bugungi kunda American Diabetes Association tomonidan tavsiya etilgan standartlarda bemor ta’limi diabetni boshqarishning asosiy komponentlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar uchun diabet maktablari, trening dasturlari va interaktiv o‘quv modullari samarali vosita hisoblanadi. Bunday dasturlarda glyukozani o‘lchash, insulin yuborish texnikasi, ovqatlanish rejimini tuzish, stressni boshqarish va jismoniy faollikni rejalashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Pedagogik-psixologik tizimni tashkil etishda andragogika va inklyuziv ta’lim tamoyillariga tayanish muhimdir. Kattalar bilan ishlashda mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy tajribaga tayangan holda o‘qitish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish usullari qo‘llaniladi.

Bolalar bilan ishlashda esa o‘yin texnologiyalari, vizual materiallar va sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar samarali natija beradi. Shu bilan birga, ota-onalar uchun ma’rifiy seminarlar tashkil etish, oilaviy maslahatlar o‘tkazish kasallikni boshqarish jarayonini barqarorlashtiradi. Qo‘shimcha ravishda, diabet bilan yashayotgan bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish, ijtimoiy stigma va psixologik bosimni kamaytirish pedagogik ishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Psixologik korreksiya elementlari – relaksatsiya mashqlari, emotsional o‘zini boshqarish, ijobiy fikrlashni rivojlantirish – glyukemik ko‘rsatkichlarning barqarorlashuviga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ham dolzarbdir. Mobil ilovalar orqali qondagi shakar darajasini nazorat qilish, elektron kundalik yuritish, masofaviy pedagogik maslahatlar berish imkoniyati yaratiladi. Bu esa bemorlarning o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatini oshiradi va nazorat jarayonini tizimli ravishda tashkil etishga xizmat qiladi. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimi ko‘p komponentli, uzluksiz va hamkorlikka asoslangan model bo‘lishi zarur. U tibbiy nazorat, pedagogik ta’lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini bir butun mexanizm sifatida birlashtirgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, diabetni boshqarishda “pedagogik kompetentlik” tushunchasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bemor faqat shifokor ko‘rsatmasini bajaruvchi emas, balki jarayonning ongli ishtirokchisiga aylan-

gandagina barqaror natijaga erishiladi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash esa pedagogik bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlovchi poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy belgilar sifatida doimiy chanqash, tez-tez siyish, tez charchash, ko‘rishning xiralashishi, sababsiz vazn yo‘qotish (1-turda), yaralarning sekin bitishi qayd etiladi. Agar diabet nazorat qilinmasa, quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin: yurak va qon tomir kasalliklari, buyrak zararlanishi, ko‘rish qobiliyatining pasayishi, asab tizimi shikastlanishi, oyoq yaralari va gangrena. Davolash va nazorat qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, qondagi shakarni muntazam o‘lchash, dori-darmonlar yoki insulin qabul qilish, shifokor nazoratida bo‘lish. Olti oylik pedagogik-psixologik aralashuvdan so‘ng quyidagi natijalar qayd etildi: qandli diabet bilan og‘rigan bolalarning pedagogik xususiyatlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Qandli diabet bilan yashayotgan bolalarda tez charchash va diqqatning pasayishi, kayfiyatning tez o‘zgarishi, stressga sezgirlik, sog‘liq bilan bog‘liq tashvishlar kuzatilishi mumkin. Bu omillar ularning o‘qish faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagogik jarayonda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimi ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Diabetni boshqarish faqat farmakologik davolash bilan cheklanmaydi, balki bemorning kundalik hayot faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi, o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatni his qilishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan pedagogik yondashuv bemorni davolash jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Diabet bilan yashayotgan bolalarda tez charchash, diqqatning susayishi, emotsional beqarorlik va sog‘liq bilan bog‘liq xavotirlar kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘quv yuklamasini moslashtirish, dars jarayonida qisqa tanaffuslar tashkil etish, sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni qo‘llash hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Individual yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Pedagogik kompetentlik tushunchasi diabetni boshqarishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bemor glyukozani nazorat qilish, ovqatlanish rejimini tuzish, jismoniy faollikni me’yorlashtirish va stressni boshqarish bo‘yicha yetarli bilim hamda ko‘nikmaga ega bo‘lgandagina barqaror natijalarga erishish mumkin. Shu ma’noda pedagogik ta’lim jarayoni sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatni talab etadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash esa pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Emotsional barqarorlikni ta’minlash, motivatsiyani kuchaytirish, ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlash diabet bilan yashovchi bolalarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularni ma’rifiy seminarlar va maslahatlar orqali jarayonga jalb etish esa pedagogik tizimning samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish diabetni boshqarish madaniyatini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron kundaliklar, mobil ilovalar va masofaviy maslahat xizmatlari bemorlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonini yengillashtiradi hamda uzluksiz monitoringni ta’minlaydi. Umuman olganda, pedagogik-psixologik yordam tizimi sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarining integratsiyasiga asoslanishi zarur. Bunday yondashuv bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, asoratlar xavfini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Qandli diabet bilan og‘rigan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ish tizimi ularning sog‘lig‘ini saqlash, ta’lim olishda teng imkoniyatlarni ta’minlash va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimning samarali bo‘lishi o‘qituvchi, ota-ona va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq. Shu bilan birga, pedagogik ish tizimi bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog‘lomlashtiruvchi va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatni o‘z ichiga oladi. Qandli diabet bilan og‘rigan bolalar uchun pedagogik-psixologik tizimning joriy etilishi asoratlar xavfini kamaytiradi va hayot sifatini oshiradi.Ushbu modelni sog‘liqni saqlash tizimining barcha bo‘g‘inlariga tatbiq etish, shifoxonalarda “shifokor-pedagog-psixolog” hamkorligini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авербух Л.Л. Педагогика детей с хроническими заболеваниями. – Москва, 2015.
2. Ефимова Н.П. Диабет и школьное образование: теория и практика. – Санкт-Петербург, 2017.
3. American Diabetes Association. Standards of Care in Diabetes – 2024 // Diabetes Care. – 2024.
4. Шерматова Я.С. Инклюзивное образование детей с особыми потребностями. – Фергана, 2020.
5. World Health Organization (WHO). Diabetes Fact Sheets. – 2023.
6. International Diabetes Federation (IDF). IDF Diabetes Atlas. – 10th ed. – Brussels, 2021.
7. Silverstein J., et al. Care of Children and Adolescents With Type 1 Diabetes // Diabetes Care. – 2005. – Vol. 28(1). – P. 186–212.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.